

**VOLITIONAL QUALITIES OF CHARACTER IN THE WORKS OF
PSYCHOLOGISTS OF THE FORMER SOVIET UNION**

Masharipova Shaxrizada Jumaboy qizi

Master's Student, Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

Abstract

This article examines the study of volitional character traits in the works of Soviet psychologists. A comparative analysis is conducted of the theoretical perspectives of Lev Vygotsky, Aleksei Leontiev, Sergey Rubinstein, Pyotr Galperin, and Boris Teplov regarding will and volitional character traits. The article highlights the role of activity, education, and the social environment in the formation of personality. The findings demonstrate that the theoretical legacy of Soviet psychology continues to provide a valuable methodological foundation for contemporary research in personality and educational psychology.

Keywords

character, volitional qualities, willpower, Soviet psychology, activity theory, personality psychology, self-regulation, motivation, personality development, methodology.

**SOBIQ ITTIFOQ PSIXOLOGLARI ISHLARIDA XARAKTERNING
IRODAVIY SIFATLARI**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti magistranti

Masharipova Shaxrizada Jumaboy qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sobiq Ittifoq psixologlari ilmiy merosida xarakterning irodaviy sifatlarini o'rganish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda Lev Vygotsky, Aleksei Leontiev, Sergey Rubinstein, Pyotr Galperin va Boris Teplov kabi olimlarning iroda va xarakterga oid ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek,

irodaviy sifatlarning shaxs rivojlanishi, faoliyatni tashkil etish hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro bog'liqligi yoritildi. Tadqiqot natijalari sobiq Ittifoq psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar zamonaviy psixologik tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: xarakter, irodaviy sifatlar, iroda, sobiq Ittifoq psixologlari, faoliyat nazariyasi, shaxs psixologiyasi, o'zini-o'zi boshqarish, motivatsiya, psixologik rivojlanish, metodologiya.

Аннотация: В статье рассматриваются исследования волевых качеств характера в трудах советских психологов. Проведен сравнительный анализ научных взглядов Lev Vygotsky, Aleksei Leontiev, Sergey Rubinstein, Pyotr Galperin и Boris Teplov на природу воли и волевых качеств личности. Особое внимание уделено роли деятельности, воспитания и социальной среды в формировании характера. Установлено, что научное наследие советской психологической школы сохраняет высокую теоретическую и практическую значимость для современных психолого-педагогических исследований.

Ключевые слова: характер, волевые качества, воля, советская психология, теория деятельности, психология личности, саморегуляция, мотивация, развитие личности, методология.

KIRISH: Xarakter muammosi – Sobiq Ittifoq psixologiyasi fanining eng muhim muammolaridan biri edi. Bu muammoni echishda mazkur psixologiya inson shaxsining mohiyatini jamiyat munosabatlari yig'indisi sifatida materialistik tushunishdan kelib chiqadi. Aynan bu shaxsning konkret tarixiy-sinfiy mohiyati xarakterning hayotiy mazmunini tashkil qiladi. Uning hayotiy va tarixiy-sinfiy mohiyati birligi individual o'ziga xos shakli va ko'rinishi fanning markaziy muammosi hisoblanadi. Unda xarakterning ilmiy nazariyasi psixologiya fanining predmetini materialistik tushunishdan kelib chiqadi. Ilmiy psixologiyada xarakterni tahlil qilish o'zida uning

psixologik tuzilishini va psixologik qonuniyatlarini, tipologiyasi va rivojlanishini bilish maqsadida sistematik o'rganishni mujassamlashtiradi. Xarakterni o'rganish psixologiya fanining sohalaridan biri bo'lmish xarakterologiyani predmeti hisoblanadi. Xarakter haqidagi tushuncha, shuningdek, uning salbiy mazmunida shunday holatlarda, salbiy xarakter xususiyatlari ko'rinishi kuzatilganda ishlatiladi. Masalan, irodasizlik, qaysarlik, qo'pollik tarbiyaviy ta'sir yo'li bilan yo'qotiladi. V.E.Mileryan «Xarakterning dinamik xususiyatlari va bilish qobiliyatlari rivojlanishida o'zaro aloqalarni tadqiq qilish» nomli maqolasida xarakter xususiyatlari va shaxsning qobiliyatlari shakllanishini aniqlovchi o'zaro aloqalar va munosabatlar muammosining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyatini ko'rib chiqqan [34]. Insonga kompleks yondashish asosida har tomonlama va garmonik rivojlanishi muammosi, uning XX asrda muhimligi B.G.Ananov, A.A.Bodalev, V.V.Davidov, A.G.Kovalev, V.N.Myasishchev, V.A.Krutetskiy, N.A.Menchinskaya va boshqalarning ishlarida ta'kidlab o'tiladi [24, 43, 26, 33, 16]. Xarakter va qobiliyat haqidagi ta'limot yaxlitligicha shaxsning individual-psixologik xususiyatlari shakllanishining qonuniyatlarini kompleks o'rganishda amalga oshiriladi. SHaxsning xarakteri va qobiliyatlarining o'zaro aloqasi muammosini echishga nazariy yondashishlar ishlab chiqilishi va qo'yilishi birinchi marta B.G.Ananov tomonidan «Xarakter va qobiliyat rivojlanishidagi o'zaro aloqalar haqida» nomli ishida amalga oshirildi. B.G.Ananovning nazariy fikrlari o'z vaqtida V.N.Myasishchev ishlarida keyingi rivojlanishini topdi. Bu tadqiqotning maqsadi yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish qobiliyati bilan chaqqonlik, harakatchanlik, irodaviy o'zini boshqarish va emotsional turg'unlik kabi xarakterologik xususiyatlarining o'zaro aloqasini nazariy va eksperimental tadqiq etish hisoblanadi. Xarakterning aniq xususiyatlari rivojlanishining genezisi insonning qobiliyatlarini shakllanadigan faoliyat tarixida berilgan. V.E.Mileryanning fikricha, aqlning shakllanishi – bu butunligicha shaxsning shakllanishidir[34]. SHuningdek, u B.G.Ananov izidan borib, xarakterni shaxsning

individual o'ziga xos psixik boyligi sifatida, ob'ektiv borlikka munosabatlar tizimi va ularni amalga oshirish usullari sifatida qarab chiqqan holda, uning tuzilishida xarakterning dinamik tomonini ko'rsatuvchi va shaxs munosabatlari ko'rinishi shaklini aks ettiruvchi emotsional-dinamik va irodaviy xususiyatlar guruhiga ajratdi. V.E.Mileryan bularning qatoriga vazminlik, jo'shqinlik, harakatchanlik, emotsional turg'unlik, o'zini o'zi boshqarish kabi xarakter xususiyatlarini kiritdi. Uning fikricha, xarakter xususiyatlari o'zida oliy nerv faoliyatining o'ziga xos individual-tipologik xususiyatlari va xulq-atvor dinamikasining individual o'ziga xosligini aniqlovchi psixik faoliyatda orttirilgan funksional xususiyatlarining birikmasini aks ettiradi. SHunday qilib, o'rganilayotgan xarakterologik xususiyatlar: vazminlik, jo'shqinlik, harakatchanlik, emotsional turg'unlik, irodaviy o'zini o'zi boshqarishi kabi oliy nerv faoliyatining gipotetik xususiyatlariga asoslanib, ma'lum darajada tarbiya, ta'lim, individual rivojlanish, ijtimoiy muhit sharoitining fenotipik natijasi hisoblanadi. Xarakterning jo'shqinligi reaksiya kuchida, maqsadga yo'nalgan faollikda qo'yilgan maqsadga erishish uchun insonning o'zini jonlantirish qobiliyatida, yuksak ishchanlik qobiliyatida, ko'rinadi. Xarakterning vazminligi deganda shaxs faolligi bilan uning xulq-atvori dinamikasi turg'unligini xarakterlovchi o'zini tuta bilish o'rtasidagi aniq mos kelish tushuniladi. K.D.Ushinskiyning ko'rsatishicha, xarakter tushunchasiga ega bo'lish kuzatish uslubi orqali amalga oshadi [19]. Kuzatish manbaning mazmunini emas, balki insonning hayot va faoliyat shakllarini kuzatish demakdir. Lekin Ushinskiyning tarbiyachining tarbiyalanuvchiga ta'siri haqidagi qarashlari orqali xarakterdagi sun'iylikni xarakter mazmunidan ajratmaganlikdir. Lesgaft o'zining xarakter haqidagi ta'limotini ochib berishda quyidagi irodaviy xususiyatlarga e'tibor qilishlikni uqtirib o'tadi: o'zini idora qila bilish, o'zining faoliyatini anglash, to'siqlardan o'ta olish imkoniyati kabilarni nazarda tutadi. Bulardan tashqari, xarakter xususiyatlariga u insonlardagi qat'iylik, ya'ni ongli tarzda mavjud haqiqatga irodaviy

erishishni kiritadi. Insonning o'zini o'zi shakllantirish sharoitida shunday axloqiy xususiyatlarni rivojlantirish kerakligini ma'qul, deb topadi, bunda uning shaxsiy irodaviy faoliyati tasdiqlangan «haqiqat haqidagi» tushunchaga qaratilgan, bu tushuncha insonning o'ziga va boshqalarga ham taalluqlidir [18]. Ba'zi bir psixologlar tomonidan maqsadga yo'nalganlik, boshqacha atamalar (iboralar) bilan ham xarakterning asosiy qismi ekanligi ifodalanadi. Jumladan, K.N.Kornilovning «xarakter» tushunchasi – bu insonning shaxsiy psixologik xususiyati bo'lib, uning asosiy hayotiy qurilma (yo'l-yo'riqlaridan: dunyoqarashi, qiziqishi, axloqiy ishonchi, taqlid namunasi kabilardan iboratdir, aynan shu jihatlari inson faoliyatining o'ziga xosligini ta'minlaydi. B.M.Teplovning tasdiqlashicha, xarakterning ifodalanishi «maqsad ifodalanishi» kabidir [13]. Bu jarayonda inson o'z oldiga maqsad qo'yish bilan uni amalga oshirish vosita va uslublarini, yo'l-yo'riqlarini ham aniqlaydi. Keyin ularni ayrim-ayrim holda tushuntirib: «inson xarakteri birinchi navbatda uni dunyoga, boshqa kishilarga, o'z ishiga va aynan o'ziga nisbatan munosabati orqali aniqlanadi. Bunday munosabatlar insonning dunyoqarashlari, e'tiqodi, ongli ifodasini topa olishi hamda uning tuyg'ulari orqali boshdan kechiriladi». Demak, bu erda keltirib o'tilgan barcha insonning tashqi olamga, o'ziga nisbatan ongli ravishda ifodalangan munosabatlari yo'naltirilgan tushunchaga ega bo'lish kabilar uni faoliyatga undovchi turkumiga kiradi. B.G.Ananayev esa xarakter tushunchasiga insonning shaxsiy xususiyatlarini kiritmasdan, faqat asosiy yo'nalishlarini, aynan shu yo'nalish shaxs hayotiy faoliyatida o'ziga xosligini ko'rsatadi [24]. P.A.Shevaryov xarakter deganda insonning shunday psixologik xususiyatlarini tushunadiki, «ularda insonning dunyoqarashi va xatti-harakatlarida bog'liqlik bo'lsin», - deb ko'rsatadi [17]. T.G.Egorov boshqa mualliflardan farqli o'laroq xarakter yo'nalganligiga birinchi o'rinda insonning boshqalarga, o'ziga munosabati qatoriga uning mehnatga munosabatini ham kiritadi. P.A.Rudik tomonidan xarakter tushunchasiga o'zining munosabatini ko'rsatib, insonning hayotiy jarayonga

turlicha qarashlari qatorida uning ijtimoiy taqozolangan xarakter xususiyatlarini xuddi «yoʻnalish» tushunchasi kabi ochib beradi. Lekin «yoʻnalish» atamasini (iborasini) qoʻllamaydi. B.G. Ananov xarakterning iroda bilan birligi haqida gapirib, shunday deydi: «Xarakter birdamligini tashkil qilishda asosiy oʻrinni iroda egallaydi. Irodaviy sifatlar insonning umumiy rivojlanishida tiklanib boradi va shaxs xarakterining irodaviy sifatlarini tarbiyalash zarurligini koʻrsatadi», - deydi. I.S. Straxov esa xarakterni irodaviy sifatlar orqali aniqlash nazariyasiga oʻz munosabatini shunday tasvirlaydi: «Bunday izohlashning ilmiy zarurligini baholash orqali shuni taʼkidlash zarurki, yaʼni irodaning turgan oʻrni xarakterning zaruriy qismidir», - deb koʻrsatadi. I.S. Straxovning keyingi koʻrsatmalari ham juda zarurdir. «Bu yoʻnalishda xarakterning ayrim tomonlarini aniqlashlaridan, shularning asosiy xususiyatlarini koʻrsatish kerak, yaʼni qisqa aniqlashga qarama-qarshi holda unda irodaning baʼzi bir sifatlarini faqat har tomonlama aniqlash qabul qilinganligini oʻrnatish zarur». Xarakterning maʼlum bir qismi sifatida irodaning oʻziga xos ahamiyatga ega ekanligi haqida T.G. Egorov, P.A. Rudik, A.G. Kovalev kabilar ham oʻz munosabatlarini koʻrsatganlar [46].

ASOSIY QISIM: Insonning shaxsiy yoʻnalishi sifatida xarakter va irodaning umumiy tizimi maʼlum ahamiyatga ega. Masalan, ularning umumiyliigi yoki qismlarga ajratilganligi yoki qarama-qarshiligi. Muayyan darajadagi barqarorligi yoki izchil ravishda oʻsib borishi xarakterning yuzaki rasmiy tomoni mazmuni emas, balki xayoliy siymosi, inson xatti-harakatlari uni xuddi shunday oʻrganishga ham qaratilishi aynan xarakterning keng maʼnoda tadqiq qilinishi, bu hollarning xarakter mazmuni bilan bogʻliq ekanligini mujassamlashtiradi. Biz uchun eng asosiy masala: shu insonning faoliyati nimaga qaratilgan, uning irodasi kimga va nima uchun xizmat qiladi? degan savollarga aniqlik kiritishdir. Boshqa talabalarning mazkur talabaga nisbatan munosabati, uni qaysi talaba yoqtirishi (jinsiga qarab), kim bilan koʻproq muloqotga kirishishga intilishi qiyoslashadi, natijada har bir talaba (14 kishi) oʻz bosqichdoshlari

bilan o'z munosabatlarining qanday tarkib topganligidan qanoatlanishi yoki qanoatlanmasligi aniqlandi. Talaba pedagogik amaliyot faoliyatiga nisbatan o'zida tarkib topgan munosabatidan qanoatlanganmi yoki qanoatlanmaganmi, uning bo'lg'usi pedagogik faoliyatidagi intilishlari qanday darajada ekanligi, u o'z zimmasidagi pedagogik faoliyatdan tashqari jamoat vazifalarini bajarishga intiladimi yoki yo'qmi, bu jarayonda uning imkoniyatlari darajasi ushbu yo'sinda aniqlandi. A.G.Kovalevning fikricha, iroda – ongning amaliy tomoni hisoblanadi va ongli ravishda tatbiq qilishda namoyon bo'ladi. Irodali kishi faoliyatda faollik orqali shaxsiy sifatlarini ochib beradi. Natijada yuqoridan yuksak ijobiy xarakter sifatlarini namoyon qiladi. Bu jarayonda nafaqat xarakter sifatleri, balki ma'naviy xususiyatlari ham o'z ifodasini topadi. Ongli ravishda faollik ko'rsatish – irodaviy harakat demakdir. Irodaviy harakatlar g'oyaviy motivlarga (turtkilarga) qurilmog'i kerak, chunki ular tashqi ta'sir orqali namoyon bo'ladi. Harakatchanlik shaxsning xarakterologik xususiyati sifatida harakatlar o'zgarishida va amalga oshish dinamikasida, malaka va ko'nikmalar shakllanishi va qayta tiklanishida, yangi ishga kirishish tezligida va bir ishdan boshqa ishga ko'chishda, diqqatni ko'chirish va taqsimlash xususiyatida, emotsional reaktivlikda ko'rinadi. B.G.Ananevning fikricha, xarakter xususiyatlariga «hayotiy mazmun» tomonidan yondashish zarur (1980). Uning fikricha, xarakter xususiyatlari munosabatlardan tashkil topadi, ammo har qanday munosabatlardan emas, balki mavjud, shaxsda ildizi bo'lganlaridan tashkil topadi. Muhim va asosiy xarakterni shakllantiruvchi munosabatlar B.G.Ananev nazarida jamiyatga, mafkuraga, mehnatga, boshqa odamlarga va o'ziga nisbatan munosabatlardir. S.L.Rubinshteyn ham turg'unlik va mustahkamlikni xarakter xususiyati sifatida ta'kidlaydi [66, 67]. Ammo B.G.Ananevdan farqli o'laroq xarakter manbasini munosabatlarda ko'rmasdan, balki motivlar va qo'zg'atuvchilarda ko'radi. Natijalar oldin vaziyatli shartlangan tarzda paydo bo'ladi va tashqi shart-sharoitlar borishida vujudga keladi. Vaqt o'tishi bilan

boshqaruvchi bo‘lib qoladi va xarakter xususiyati sifatida mustahkamlanadi. «Turtki, motiv – bu xarakter xususiyatidir», - deb ta’kidlaydi S.L.Rubinshteyn.N.D.Levitov bir-biriga o‘xshash fikrlariga asoslanib quyidagicha xulosa qilgan: «SHaxsning komponenti sifatida xarakter barcha sobiq Ittifoq psixologlari ishlarida yo‘nalish yoki munosabatlar tizimi va irodaviy xususiyatlar tizimi sifatida tahlil qilinadi». Xarakterga bunday qarash shaxsni empirik tushunish sifatida bu so‘zni umumiy hayotiy tushunishga egadir. Intuitsiya va ilmiy tahlil xarakterda insonning psixologik boyligida alohida o‘rin tutadigan quyidagi muhim belgilarni qarab chiqadi. Bunday xususiyatlar uni boshqalardan farqlaydi (irodaviy sifatlar). Barcha aytilgan belgilar shaxs tushunchasiga ham taalluqlidir. SHaxsning xususiyatlari individual o‘ziga xos, turg‘un faoliyatda gavdalanadi. «Irodali shaxs» ham «irodaviy xarakter» so‘zidek tabiiy eshitiladi. SHunday qilib, umumiy hayotiy tushunish ilmiy adabiyotlarda “xarakter” atamasi inson xulq-atvori yo‘nalishini uning munosabatlari tizimini belgilash uchun qo‘llaniladi, deb tushuntiradi. N.D.Levitovning fikricha, “Xarakter psixologiyasi huquqini tiklash” uchun chaqiriqni (N.D.Levitov, 1970, 21-bet) shunday holatda reallashtirish mumkinki, qachonki, “xarakter” va “shaxs” so‘zlarini sinonim qilib ishlatish to‘xtatilganida.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Mazkur tadqiqot sobiq Ittifoq psixologlari ilmiy merosida xarakterning irodaviy sifatlariga oid nazariy qarashlarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda nazariy va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda ilmiy interpretatsiya usullari qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini faoliyat nazariyasi, madaniy-tarixiy yondashuv, tizimli yondashuv va shaxs psixologiyasining asosiy tamoyillari tashkil etdi. Tahlil jarayonida sobiq Ittifoq psixologiya maktabining yetakchi vakillari — Lev Vygotsky, Sergey Rubinstein, Aleksei Leontiev, Pyotr Galperin, Boris Teplov va boshqa olimlarning ilmiy asarlari o‘rganildi. Ularning iroda, xarakter, motivatsiya, faoliyat va shaxs rivojlanishiga oid nazariyalari qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, umumiy

metodologik xulosalar chiqarildi. Tadqiqot davomida ilmiylik, xolislik, tarixiylik va tizimlilik tamoyillariga amal qilindi. Nazariy manbalardan olingan ma'lumotlar zamonaviy psixologiya yutuqlari bilan solishtirilib, ularning bugungi psixologik tadqiqotlar uchun metodologik ahamiyati baholandi.

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sobiq Ittifoq psixologlari xarakterning irodaviy sifatlarini shaxs psixologiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaganlar. Ularning ilmiy qarashlarida iroda insonning ongli faoliyatini boshqaruvchi, maqsad sari yo'naltiruvchi hamda qiyinchiliklarni yengishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizm sifatida talqin etiladi. Qiyosiy tahlillar natijasida ****Lev Vygotsky****ning madaniy-tarixiy nazariyasi, ****Aleksi Leontiev****ning faoliyat nazariyasi va ****Sergey Rubinstein****ning shaxs-faoliyat konsepsiyasi irodaviy sifatlarni tushuntirishda bir-birini to'ldiruvchi ilmiy yondashuvlar ekanligi aniqlandi. Mazkur nazariyalarda irodaviy sifatlarning biologik emas, balki ta'lim, tarbiya, faoliyat va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida rivojlanishi asoslab berilgan. Shuningdek, ****Pyotr Galperin****ning aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi hamda ****Boris Teplov****ning individual psixologik xususiyatlarga oid qarashlari irodaviy sifatlarning rivojlanish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot sobiq Ittifoq psixologlari ilmiy merosi bugungi kunda ham shaxs psixologiyasi, pedagogik psixologiya va rivojlanish psixologiyasi yo'nalishlarida muhim metodologik manba bo'lib qolayotganini ko'rsatdi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu nazariyalarni zamonaviy empirik tadqiqotlar bilan uyg'unlashtirish hamda ularning ta'lim amaliyotidagi samaradorligini baholash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lev Vygotsky. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
2. Aleksei Leontiev. *Activity, Consciousness, and Personality*. Moscow: Progress Publishers, 1978.
3. Sergey Rubinstein. *Основы общей психологии*. Санкт-Петербург: Питер, 2002.
4. Pyotr Galperin. *Введение в психологию*. Москва: Издательство МГУ, 1976.
5. Boris Teplov. *Психология индивидуальных различий*. Москва: Академия педагогических наук, 1961.
6. Alexander Luria. *Основы нейропсихологии*. Москва: МГУ, 1973.
7. Daniil Elkonin. *Психология развития*. Москва: Педагогика, 1989.
8. Lidiya Bozhovich. *Личность и её формирование в детском возрасте*. Москва: Просвещение, 1968.
9. Boris Ananyev. *Человек как предмет познания*. Ленинград: ЛГУ, 1968.
10. Konstantin Platonov. *Структура и развитие личности*. Москва: Наука, 1986.
11. Abraham Maslow. *Motivation and Personality*. New York: Harper & Row, 1970.
12. Albert Bandura. *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1986.
13. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va yoshlar siyosatiga oid farmon va qarorlari. – Toshkent.
15. Zamonaviy pedagogik psixologiya. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent, 2023.